

RAUF PARFI SHE'RIYATIDA ANTONIMLARNING ANTROPOTSENTRIK TADQIQI

Usmonova Surayyo,

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy universiteti 1-bosqich magistranti

Surayyousmonova0429@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Rauf Parfi she'riyatida antonimlarning antropotsentrik paradigma nuqtayi nazaridan tahlil qilish maqsad qilingan. Kontekstual-semantik, kognitiv-pragmatik va lingvopoetik tahlil usullari orqali antonimlarning antropotsentrik tabiati ochib berilgan. Natijada antonimlar shaxsiy tajriba, emotsional baho va lirik subyekt pozitsiyasini modellashtiruvchi konseptual oppozitsiyalar sifatida ishlashi misollar asosida dalillangan.

Kalit so'zlar: antonimiya, antroposentrizm, lirik subyekt, konnotatsiya, kognitiv semantika, lingvopoetika.

Аннотация. В статье целью является анализ антонимов в поэзии Рауфа Парфи с точки зрения антропоцентрической парадигмы. Антропоцентрическая природа антонимов раскрывается посредством контекстуально-семантического, когнитивно-прагматического и лингвопоэтического методов анализа. В результате на примерах доказано, что антонимы функционируют как концептуальные оппозиции, моделирующие личный опыт, эмоциональную оценку и позицию лирического субъекта.

Ключевые слова: антонимия, антропоцентризм, лирический субъект, коннотация, когнитивная семантика, лингвопоэтика.

Annotation. The article aims to analyze antonyms in Rauf Parfi's poetry from the perspective of the anthropocentric paradigm. The anthropocentric nature of antonyms is revealed through contextual-semantic, cognitive-pragmatic, and linguopoetic analysis methods. As a result, it is demonstrated with examples that antonyms function as conceptual oppositions modeling personal experience, emotional evaluation, and the position of the lyrical subject.

Keywords: antonymy, anthropocentrism, lyrical subject, connotation, cognitive semantics, linguopoetics.

Kirish. O'zbek she'riyati tilida antonimiya hodisasi an'anaviy ravishda leksik-semantik munosabat sifatida izohlanib kelgan bo'lsa-da, zamonaviy tilshunoslikda uning matn yaratuvchi va inson tajribasini modellashtiruvchi imkoniyatlari tobora muhimlashmoqda. Antropotsentrik paradigma til birliklarini, avvalo, insonning idrok, baho, emotsiya, maqsad va kommunikativ niyatlari bilan bog'liq holda talqin etishni talab qiladi. Bunday yondashuvda antonimlar faqat "qarama-qarshi ma'no"ni bildiruvchi juftliklar emas, balki lirik subyektning ichki kechinmalari, axloqiy-me'yoriy mezonlari, vaqt-makon tasavvuri va o'zini anglash jarayonini badiiy shaklda ifodalovchi konseptual mexanizmlar sifatida namoyon bo'ladi. Rauf Parfi she'riyati esa tilning semantik zaxiralarini kuchli emotsional intensivlik, falsafiy umumlashtirish va shaxsiy tajriba drammatizmi bilan uyg'unlashtirgan badiiy tizimdir. Shu bois, Rauf Parfi matnlarida antonimik oppozitsiyalarni antropotsentrik mezonlar asosida o'rganish nafaqat shoirning individual uslubini yoritadi, balki o'zbek poetik nutqida inson markazli ma'no qurilishining tipik modellarini ham ko'rsatadi.

Rauf Parfi she'riyatida qarama-qarshiliklar ko'pincha tashqi predmetlar yoki abstrakt kategoriyalar to'qnashuvi sifatida emas, balki lirik "men"ning ichki dunyosi, tanlovlari va baholashlari doirasida ochiladi.

Sening qiyofangda xilqatni tuydim,

Yashamak san'atin soldim qo'ynimga.

Olomoni emas, Allohni suydin,

Hikmatingdan tumor osdim bo'ynimga.[1]

"Olomoni emas" (Omoni emas) – bu yerda "olomon" insonlar olami, jamoaviy fikr, moddiy dunyo, shovqin va ba'zan yuzaki qadriyatlarni anglatadi. Bu, insonning tashqi muhitga qarab yashashini, insoniy, lekin vaqtinchalik va o'tkinchi qadriyatlarni asos qilib olishini ko'rsatadi. "Allohni suydin" (Allohni sevdin) – bu yerda "Alloh" ilohiy, abadiy, ma'naviy, ichki va mutlaq haqiqatni anglatadi. Bu insonning o'z ichki dunyosiga, ma'naviy kamolotga, ilohiy sevgiga intilishini, hayotning chuqur ma'nosini topishga bo'lgan shaxsiy va individual ehtiyojini ifodalaydi.

Adabiyotlar tahlili. Ilmiy adabiyotlarda antonimiya masalasi leksikologiya va semasiologiya doirasida yoritilgan, shuningdek, poetik nutqning ifoda vositalari sifatida ham qayd etilgan [2; 5]. Biroq Rauf Parfi she'riyati misolida antonimlarning antroposentrik vazifalari, ya'ni lirik subyektning kognitiv va pragmatik strategiyalariga bog'liq holda qanday ishlashi, oppozitsiyalar qanday konseptual maydonlar hosil qilishi, konnotatsiya va baholashni qanday boshqarishi yetarli darajada tizimli tadqiq etilmagan. Antonimik qurilmalar Rauf Parfi matnida qanday qilib "inson tajribasi modeli"ga aylanadi va bu jarayonda lingvopoetik mexanizmlar qanday ishlaydi?

Antropotsentrik paradigma doirasida ko'p usullilik tamoyiliga tayanadi, chunki poetik matnda antonimlar faqat leksik birlik sifatida emas, balki turli qatlamlarda bir vaqtda ishlaydi. Rauf Parfi ijodi tahlili asosida: birinchidan, she'riy to'plamlaridan antonimik munosabatlar kuchli namoyon bo'ladigan kontekstlar ajratib olinadi. Ikkinchidan, kontekstual-semantik tahlilda antonimlarning lug'aviy qarama-qarshiligi bilan bir qatorda, kontekstda paydo bo'ladigan ko'chma ma'no, baholash, emotsional rang aniqlashtiriladi. Bu jarayonda antonimiya "tayyor juftlik" sifatida emas, balki matn ichida shakllanuvchi dinamik oppozitsiya sifatida ko'riladi [5; 8]. Uchinchidan, kognitiv-semantik rekonstruksiya usuli orqali antonimik oppozitsiyalar ortida turgan konseptual maydonlar modellashtiriladi. Bu yondashuv antonimlarni "inson idroki tashkil etgan qarama-qarshi mezonlar" sifatida talqin qilish imkonini beradi: masalan, yaqinlik va begonalik, ichki va tashqi, sokinlik va to'lqin, yorug'lik va qorong'ilik singari oppozitsiyalar shaxsiy tajribani tuzuvchi kategoriyalar sifatida ko'riladi [3; 9]. To'rtinchidan, lingvopoetik talqin (interpretatsiya) yordamida antonimlarning badiiy - estetik vazifasi, ritmik-intonatsion muhit bilan munosabati, metaforik tizimga qo'shilishi va lirik subyekt pozitsiyasini kuchaytirishdagi roli ochib beriladi [2; 7]. Shuningdek, qiyosiy-analitik yondashuv orqali Rauf Parfi she'riyatida kuzatilgan natijalar antonimiya

bo'yicha umumiy nazariy qarashlar bilan solishtiriladi, bu esa muayyan poetik hodisani umumtil tizimi doirasida to'g'ri joylashtirishga xizmat qiladi.

Rauf Parfi she'riyatida antonimlar antropotsentrik ma'no qurilishining bir necha barqaror modelini yuzaga chiqarishini ko'rsatadi. Shoir poetik nutqida antonimlar ko'pincha "psixologik holat oppozitsiyasi"ni yaratadi va bunday oppozitsiya lirik subyektning ichki ziddiyatini kompozitsion markazga aylantiradi.

Yerga cho'kkan osmonlarni kuzatdim,

Chopilgan oyog'im bilan chopdim men.

Kesilgan qo'limni sizga uzatdim.

Bu dunyo gulga to'ldi. Qotdim men,

So'qir ko'zlarimni nur-la bezatdim,

Mehribonim, qonim, Sizni topdim men. [1]

Bu holatda antonimlar tashqi olamning obyektiv sifatlarini emas, balki subyektning ichki tajribasini ikki qutbga ajratib, oraliq holatlarning tarangligini kuchaytiradi. Natijada qarama-qarshilik "dunyo qanday"ligi haqidagi ta'rif emas, "men buni qanday his qilaman" degan subyektivlik maydonida shakllanadi. Bir vaqtning o'zida ham yomg'irga bag'rini ochishi, ham yomg'irni unutishi hodisasi ziddlik vositasida go'zal ruhiy holat yaratadi. Antonimlarning bunday ishlashi emotsional intensivlikni oshiradi: oppozitsiya keskin bo'lsa, lirik "men"ning kechinmasi ham keskinlashadi; oppozitsiya yumshatilsa, ichki monologning mulohazaviy ohangi kuchayadi.

Antonimik juftliklar Rauf Parfi matnida ko'pincha baholovchi semantika bilan birga keladi. Qarama-qarshi qutblar teng huquqli tarzda berilmaydi; odatda ulardan biri lirik subyekt uchun ijobiy, ikkinchisi salbiy yoki xavotirli qiymat kasb etadi. Bu esa antonimiyani oddiy mantiqiy qarama-qarshilikdan ko'ra, axloqiy-estetik mezonlar doirasidagi tanlov tiliga aylantiradi.

Yaxshi edi bir ko'rsam edi,

Vaslingdan ham qo'rqaman, biroq.

Yaxshi bo'lur bir ko'rsam seni,

Ko'rmaganim undan yaxshiroq.

Shu tarzda antonimlar subyektning qadriyatlar iyerarxiyasini yashirin tarzda ochib beradi: Ushbu misralarda antonimlar shunchaki til birligi emas, balki "Ruhiy muvozanatsizlik" ramzidir. Shoir "ko'rish" va "ko'rmaslik" tushunchalarini zidlash orqali sevgining shunday bir cho'qqisiga chiqadiki, unda hijron (ko'rmaslik) vasldan (ko'rishdan) ustun qo'yiladi. Bu tasavvufiy ishqqa (ma'shuqaning jismidan ko'ra uning qalb va xayoldagi qiyofasini e'zozlashga) yaqin kayfiyatdir.

Rauf Parfi she'riyatida antonimlar ko'pincha abstrakt konseptlar o'rtasidagi qarama-qarshilikdan ko'ra, "inson va makon" munosabatini modellashtiradi. Bunda ichki va tashqi, yaqin va uzoq, yuqori va past kabi oppozitsiyalar faqat makon ko'rsatkichi bo'lib qolmay, subyektning o'zini dunyoda joylashtirish usuliga aylanadi. Bunda antonimlar lirik

subyektning ruhiy holati bilan sintezlanib, makonni psixologik makonga aylantiradi: "osmon" intilish, "yer" bosilish; "yaqin" ishonch, "uzoq" begonalik kabi kognitiv bog'lanishlar kuchayadi.

Buncha osmon yiroq, buncha yer qattiq?!

Aql-u hushdan yiroq, vola munajjim,

Rad bo'lmish olamdan ko'zin yumdi jim.[1]

Antonimlar vaqt tasavvurini qurishda ham antropotsentrik vazifa bajaradi. Rauf Parfi poetik nutqida kecha va bugun, oldin va keyin, tez va sekin kabi oppozitsiyalar ko'pincha obyektiv xronologiya emas, subyektning xotira va kutish mexanizmlari bilan bog'liq holda ishlaydi.

Avval xayol eding, bir xayol, xolos,

Avval xayol eding. Yo'limsan endi,

Poyonsiz yo'limsan, qo'rqinch, beqiyos.

G'arib dunyolaring g'ovuri tindi.[1]

Bunday holatda antonimiya vaqtni "o'tuvchi oqim" sifatida emas, "kechinma sifati" tarzida beradi: ayrim lahzalar cho'ziladi, ayrim davrlar bir nuqtaga yig'iladi. Natijada antonimlar vaqtni subyektiv idrok birliklari orqali tashkil etadi va lirik subyektning hayotiy tajribasi drammatizmini kuchaytiradi.

Qarama-qarshi qutblar parallel tuzilmalarda berilganda oppozitsiya nafaqat semantik, balki eshitalish va urg'u darajasida ham kuchayadi. Bu esa o'quvchi idrokida antonimlarni "fikrning tayanch nuqtalari"ga aylantiradi: matnning mantiqiy yo'nalishi, emotsional ko'tarilish-pasayish dinamikasi aynan shu tayanchlar orqali boshqariladi.

Ko'zlaring tubinda ko'hna musibat...

Mening sevinchlarim, mening ohlarim

Go'yo unutilgan, mening ohlarim,[1]

Natijada antonimiya Rauf Parfi poetikasida kompozitsion tartib va emotsional ritmni barqarorlashtiruvchi vosita sifatida ham namoyon bo'ladi. Antonimlar ko'p hollarda bevosita lug'aviy juftlik sifatida emas, balki kontekstda yuzaga keladigan "implitsit oppozitsiya" sifatida ishlaydi. Bunda qarama-qarshilik ikki so'zning tayyor juftligida emas, balki obrazlar, metaforalar va assotsiatsiyalar to'qnashuvida paydo bo'ladi.

Yomg'ir yog'ar, shig'alab yog'ar,

Men unga ochaman bag'rimni,

Yomg'ir yog'ar, shig'alab yog'ar,

Asta unutaman yomg'irni[1]

"Ochaman bag'rimni" va "Unutaman". Aslida "bag'ir ochish" (qabul qilish, yaqinlashish) va "unutish" (yoddan chiqarish) so'zlari lug'aviy antonimlar emas. Biroq bu she'r kontekstida ular zid holatlarni ifodalaydi:

"Bag'rimni ochaman" — bu yomg'ir bilan yuzma-yuz kelish, uni his qilish, borliqni butun vujud bilan qabul qilish bosqichi. "Unutaman yomg'irni" — bu yomg'ir bilan birga

aylanib ketish, u bilan qo‘shilib, o‘zlikni ham, yomg‘irni ham his qilmaydigan darajaga yetish bosqichi. Shoir yomg‘irga shunchalik yaqinlashadiki (bag‘ir ochadi), natijada u bilan bir butun bo‘lib qoladi va yomg‘ir endi "tashqi obyekt" bo‘lmay qolgani uchun uni "unutadi". Bu yerda his qilish va his qilmaslik (unutish) o‘rtasida kontekstual zidlik bor. Bu hol Rauf Parfi she‘riyatining antropotsentrik xususiyatini kuchaytiradi: ma’no tayyor holda berilmaydi, u subyektlararo idrok jarayonida yuzaga keladi.

Antonimiyani faqat leksik munosabat sifatida ko‘ruvchi yondashuv deb baholash yetarli emas. Leksikologik talqin antonimlarni til tizimidagi qarama-qarshi ma’nolar to‘plami sifatida izohlashga moyil [5], biroq poetik matnda, ayniqsa, Rauf Parfi lirikasida antonimlar ko‘pincha konseptual va pragmatik hodisaga aylanadi. Bu jihat kognitiv yondashuvda ta’kidlangan konseptual oppozitsiyalar tabiatiga mos keladi: inson tafakkuri dunyoni ko‘pincha ikki qutbli mezonlar orqali tartiblaydi va badiiy matn ana shu tartibni emotsional hamda baholovchi qatlamlar bilan boyitadi [3].

Rauf Parfi she‘riyatida aniqlangan psixologik holat oppozitsiyalari aynan shuni ko‘rsatadiki, qarama-qarshilik subyekt tajribasini keskinlashtirish va o‘zini anglash jarayonini dramatik shaklda ifodalashga xizmat qiladi. Bu natija lingvopoetika doirasida poetik tilning subyektivlikni tashkillashtirishi haqidagi qarashlarni qo‘llab-quvvatlaydi [2; 7], chunki Rauf Parfi ijodida antonimlar “lirik ovoz”ni tashkil etuvchi semantik tayanchlarga aylanadi.

Muhokama va natija. Baholovchi semantika bilan bog‘liq natijalar ham nazariy jihatdan muhim. Rus olimi V.Vinogradov poetik nutqda so‘zning konnotativ imkoniyatlari va uslubiy qiymati kuchayishini ta’kidlaydi [7], Muallif poetikasida esa antonimlar aynan konnotativ “og‘irlik markazi”ni belgilab beradi. Bu yerda qarama-qarshi qutblar mantiqiy tenglikka emas, subyektning qadriyat mezonlariga bo‘ysunadi; demak, antonimiya axloqiy-estetik tanlov tili sifatida ishlaydi. Bu hol N. Arutyunova tomonidan ko‘rsatilgan baholashning til birliklari orqali shakllanishi haqidagi fikrlar bilan uyg‘unlashadi [8], biroq Rauf Parfi matnida baholash, odatda, ochiq didaktik hukm tarzida emas, oppozitsion obrazlar tizimi orqali nozik tarzda beriladi. Natijada poetik baholash o‘quvchiga “tayyor hukm” emas, balki his etiladigan taranglik sifatida yetib boradi.

Kognitiv semantika borliq-vaqt kategoriyalarining inson idroki bilan bog‘liq holda konseptuallashtirishini ko‘rsatadi [9]. Rauf Parfi she‘riyatida ichki va tashqi, yaqin va uzoq kabi oppozitsiyalar subyektning ruhiy holati bilan sintezlanib ketishi bu nazariyani poetik materialda tasdiqlaydi. Bunda makon “obyektiv koordinatalar” emas, “subyektning ichki koordinatalari”ga aylanadi. O‘zbek tilshunosligida poetik makon va semantik maydon masalalarini yoritgan tadqiqotlar bilan qiyoslaganda, Rauf Parfi matnida antonimiya makonning semantik maydonini belgilashda nisbatan faolroq rol o‘ynashi ko‘rinadi [2; 4]. Ya’ni, tasviriy vositalar ko‘p bo‘lishiga qaramay, aynan oppozitsion qutblar makonning “psixologik xaritasi”ni tuzadi.

Sintaktik parallelizm va implitsit oppozitsiya haqidagi natijalar ham antonimiya nazariyasini kengaytiradi. L.Novikov antonimik munosabatlarning matndagi ishlashida kontekstning hal qiluvchi rolini qayd etadi [6]. Rauf Parfi she'riyatida esa kontekst faqat "moslashtiruvchi muhit" emas, antonimiyani bevosita yaratuvchi mexanizm sifatida ham namoyon bo'ladi: qarama-qarshilik ko'pincha aytilmagan ikkinchi qutbni o'quvchi ongida tiklashga majbur qiladi. Bu esa matnning kommunikativ modeli nuqtayi nazaridan muhim: ma'no hamkorlikda quriladi, lirik subyekt va o'quvchi o'rtasidagi semantik hamkorlik kuchayadi. Shu bilan birga, parallel sintaksis va intonatsiya oppozitsiyani eshitiladigan va esda qoladigan qiladi, bu esa poetik ta'sirning psixolingvistik asoslari bilan hamohangdir [10]. Demak, Rauf Parfi she'riyatida antonimlar nafaqat "nima aytilgani"ni, balki "qanday aytilgani"ni ham boshqaradi.

Xulosa. Xulosa sifatida ta'kidlash zarurki, O'zbek tilshunosligida antonimiya ko'pincha lug'aviy tizim doirasida tasniflanib, juftliklarning turlari, darajalari va stilistik xususiyatlari ko'rsatiladi [4; 5]. Rauf Parfi poetikasida esa antonimlar antropotsentrik, ya'ni inson tajribasiga bog'liq semantik-pragmatik mexanizmlarini markazga chiqaradi. Natijada antonimiya tasnifi "tizimdagi juftliklar"dan "matndagi konseptual oppozitsiyalar"ga ko'chiriladi. Bu ko'chish shoir individual uslubini tushuntirish bilan birga, poetik tilning umumiy qonuniyatlariga ham qo'shimcha dalil beradi: badiiy matnda qarama-qarshilik ko'pincha subyektning ichki iyerarxiyalarini va identifikatsiya strategiyalarini ifodalovchi semantik qurilma sifatida ishlaydi. Rauf Parfi she'riyatida antonimiyani faqat leksik munosabat emas, balki kognitiv-pragmatik va lingvopoetik hodisa sifatida talqin qilish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rauf Parfi. Iymon asiri. Toshkent, Akademiya nashri, 2023
2. Qo'ng'urov R. O'zbek tili stilistikasi. Toshkent, O'qituvchi, 1992. 240 b.
3. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. Chicago, University of Chicago Press, 2003. 276 p.
4. Mahmudov N. O'zbek tilining semantik-stilistik masalalari. Toshkent, Fan, 2010. 192 b.
5. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Leksikologiya. Toshkent, Universitet, 2006. 304 b.
6. Новиков Л. А. Семантика русского языка. Москва, Высшая школа, 1982. 272 s.
7. Виноградов В. В. О языке художественной литературы. Москва, Наука, 1980. 360 s.
8. Арутюнова Н. Д. Язык и мир человека. Москва, Языки русской культуры, 1999. 896 s.
9. Talmy L. Toward a Cognitive Semantics. Vol. 1. Cambridge, MIT Press, 2000. 565 p.
10. Leech G. N. A Linguistic Guide to English Poetry. London, Routledge, 2014. 248 p.